

SHIMOLIY ATLANTIKA SHARTNOMASI TASHKILOTI (NATO) NING ZAMONAVIY XALQARO MOJAROLARDAGI O‘RNI (ROSSIYA–UKRAINA URUSHI MISOLIDA)

Davlatova Shodiyona

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalish talabasi
E-mail-davlatovashodiyona@gmail.com
Ilmiy rahbar: **Suyunova B.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada NATO ning zamonaviy xalqaro mojarolardagi o‘rni Rossiya–Ukraina urushi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mazkur mojaroning kelib chiqish sabablari, geosiyosiy omillari hamda xalqaro xavfsizlik tizimiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, NATOning inqirozni boshqarish, kollektiv mudofaani ta’minlash va Ukrainaga ko‘rsatayotgan siyosiy-harbiy yordami ilmiy jihatdan baholanadi. Muallif tomonidan NATOning mazkur mojarodagi roli, uning imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinib, xalqaro xavfsizlik tizimidagi o‘rni yuzasidan xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: konsensus, YAIM, NATO, NAC, razvedka ma’limotlari, harbiy va siyosiy tuzilmalar, xalqaro munosabatlar, Rossiya–Ukraina urushi, mudofaa, xalqaro xavfsizlik, geosiyosat, Munich Xavfsizlik Konferensiyasi.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so‘ng, 1947 yilda ikki super davlat, ya’ni Amerika Qo‘shma Shtatlari va Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi o‘rtasida sovuq urush paydo bo‘ldi. Sovuq urush turli bosqichlardan tashkil topgan va har ikkala super kuchlar tomonidan bir-biridan ustun turish va o‘z bloklarining ustunligini tasdiqlash uchun turli xil harbiy shartnomalar va ittifoqlar tuzilgan. Sovuq urushning asosiy xususiyati shu tariqa harbiy ittifoqlarning mustahkamlanishi edi. [1] 1949-yilda Vashington shahrida 12 asoschi davlat NATO tashkil topganini hujjatlashtiruvchi Shimoliy Atlantika shartnomasi imzoladi. Dastavval, G‘arbiy Yevropa davlatlari va AQSh, Kanada o‘rtasida tuzilgan mazkur siyosiy hamda harbiy ittifoq Yevropada Sovet Ittifoqi ta’siriga qarshi muvozanatni ta’minlash maqsadida hamkorlik mexanizmlarini yaratdi.

Tashkilotning maqsadlarini ta’minlovchi ikki asosiy tamoyil mavjud bo‘lib, ular kollektiv mudofaa va konsensus orqali qabul qilinadi. Dastlabki tamoyilga ko‘ra, agar tashkilot tarkibidagi davlatga tashqi davlat hujum qilsa, barcha tashkilot tarkibidagi davlatlar uni himoya qiladi. Ikkinchi tamoyilga ko‘ra, barcha qarorlar umumiy kelishuv-konsensus asosida barcha davlatlar tomonidan qabul qilinadi. Ya’ni NATOda ovoz berish tizimi mavjud emas.

NATO tuzilmasida ikki asosiy yo‘nalish mavjud, fuqarolik (siyosiy) va harbiy tizimlar asosiga qurilgan bo‘lib, ular Bosh kotib tomonidan muvofiqlashtiriladi. Siyosiy qarorlar asosan fuqarolik tuzilmalari, xususan, NAC, tomonidan qabul qilinib, bu tashkilotda NATOga a‘zo davlatlarning elchilari faoliyat yuritadi. Harbiy qarorlar esa Harbiy qo‘mita va integratsiyalashgan harbiy qo‘mondonlik tizimi jalb etiladi. Hozirgi kunda NATO 32 a‘zodan iborat bo‘lib, ularning barchasi ham harbiy tuzilma tarkibiga kirmaydi. Misol uchun, Fransiya shular jumlasidan.

NATOning moliyalashtirilishi a‘zo davlatlar tomonidan amalga oshirilib, bu bir tomondan YAIMga asoslangan ulush tizimi orqali va boshqa tomondan esa a‘zo davlatlar tomonidan fuqarolik va harbiy xodimlar bilan ta’minlash orqali amalga oshiriladi. NATO ning maqsadini yaqqol

Shimoliy Atlantika shartnomasining V moddasini tushunishdan bilishimiz mumkin. Unda; **"Tomonlar Yevropada yoki Shimoliy Amerikada ulardan biriga yoki bir nechtasiga qurolli qarshi hujum qilsa, ularning barchasiga qarshi hujum qilindi deb, hisoblanishiga rozi"** deyilgan. Shuningdek, **"Agar bunday qurolli hujum sodir bo'lsa, ularning har biri Birlashgan Millatlar tashkiloti Ustavining 51-moddasida tan olingan individual yoki jamoaviy o'zini himoya qilish huquqini amalga oshirishda tashkilotga yordam berishiga rozi bo'lishadi va boshqa tomonlar bilan kelishilgan holda, Shimoliy Atlantika hududining xavfsizligini tiklash va saqlash uchun zarur deb hisoblagan harakatlar, shu jumladan qurolli kuchlardan foydalanadilar"**[1]. Bundan tashqari NATO boshqa a'zo davlatlarning erkinligi va xavfsizligini siyosiy va harbiy vositalar orqali kafolatlaydigan tashkilotdir [2].

Rossiya va Ukraina o'rtasida davom etayotgan mojaro bugungi kunga kelib geosiyosiy keskinlikni kuchaytirdi. Shuningdek, NATO ning mazkur masaladagi o'rnini xalqaro miqyosda ahamiyat kasb etishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur mojaro dastavval 2014-yilda Rossiyaning Qrimni aneksiya qilishi va Sharqiy Ukrainadagi separatistik kuchlarni qo'llab-quvvatlagani bilan boshlanib, vaqt o'tgan sari murakkab va uzoq muddatli mojaroga aylandi. NATOning ushbu mojarolar borasida olib borgan harakatlari diplomatik aloqalar va harbiy strategiyalarga sezilarli ta'sirini ko'rsatdi.

Rossiya-Ukraina urushida Ukrainaning xavfsizligi NATO ning a'zo davlatlariga chuqur ta'sir ko'rsatdi, chunki Ukrainaning tashkilot bilan geografiya va savdo nuqtai nazaridan muhim aloqalari mavjud. Shu sababli NATO Ukraina tomoni uchun bu urushda Ukrainaning o'zini himoya qilish huquqini to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Rossiya esa shafqatsiz tajovuzkorlik urushi deb qattiq tanqid qildi. Rossiyaning Ukrainaga to'liq miqyosda bostirib kirishidan so'ng NATO mudofaa rejasini ishga tushirdi va mamlakatni himoya qilish va qo'riqlash uchun Atlantika qirg'og'idan minglab qo'shimcha askarlarni yubordi[3]. Bosqinning ta'siri NATO da xavfsizlik masalalarining birinchi darajali bo'lishiga olib keldi, bu esa alyansning rolini yanada muhimlashtirdi. Shunday qilib, Shvetsiya va Finlyandiyaning siyosiy betarafligi pasayib ketdi, bu esa NATO ga Ukrainani qo'llab-quvvatlash uchun tinchlikni saqlashni amalga oshirish uchun qo'shimcha kuch berdi [4]. NATO Yevropa mintaqasida demokratiyani qo'llab-quvvatlash, inson huquqlarini himoya qilish, erkinliklarini ta'minlash va qonun ustuvorligini mustahkamlashga qaratilgan tashkilot bo'lib, agarda ittifoqchi davlatlar hududidan tashqariga inqiroz yoki mojarolar yoyilsa, NATO maqsadlariga ta'sir qilishi mumkin. Shu sabadan, tashkilot hamkorlik aloqalarini ta'minlash va turli inqirozlarni boshqarish faoliyatlarida ishtirok etadi va shu orqali global tinchlik, barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

NATO ning asosiy vazifalaridan biri uning a'zo mamlakatlari chegaralarini himoyalashda yordamlashishdan iborat. Bundan tashqari tashkilot inqirozlarni boshqarish, ulardan keyingi vaziyatni baqarorlashtirish va tiklanish jarayoniga yordam berishda ham ishtirok etadi. Bu orqali tashkilot qadriyatlarini boshqa hududlarga ham yoya oladi. Tashkilot ushbu maqsadlarga erishish uchun siyosiy hamda harbiy choralarni yuqori darajada yo'nalishni va muvofiqlashtirishni ta'minlaydi va keng qamrovda amalga oshiradi.

Rossiya va Ukraina holatida NATOning Ukrainaga ko'rstagani harbiy yordami uning mudofaa imkoniyatlarini sezilarli darajada oshishiga yordam berdi. Shuningdek, bu orqali Sharqiy Yevropada Rossiyaning keying harbiy faolligini jilovlashga qaratilgan choralardan biri sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Ammo bugungi holat NATO ichki birligiga ham ma'lum darajada tahdid borligini ko'rsatadi. Zero, a'zo davlatlar o'rtasida tahdidni baholash va ustuvor yo'nalishlar borasida turli farqlar mavjudligi muayyan muvozanatni buzuvchi masalalar yuzaga kelishiga olib kelishi

mumkin. Bundan tashqari, mazkur mojaro mudofaa siyosatini qayta ko'rib chiqishga, harbiy xarajatlar va tayyorgarliklarning darajasini oshishiga olib kelgan.

NATO tomonidan Ukrainaga yordamni davom ettirishi, xususan, harbiy qurol-aslahalar, razvedka ma'lumotlatini, ta'minlashni davom ettirishi muvofiq ekani ta'kidlanmoqda. Rossiyaning Ukrainaga qarshi kurashi allaqachon keskinlashishga ulgurgan NATO va Rossiya munosabatlarini yanada yomonlashtirmoqda. Bu esa Rossiya va G'arb o'zaro “sovuq urushini” yana jonlantirmoqda.

AQSH ning sovuq urush davridagi tiyib turish strategiya asoschisi Jorj Kennan o'zining 1998-yil may oyida The New York Times gazetasiga bergan intervyusida NATO kengaytirishni dastlabki bosqichini ma'qullashining oqibatlarini oldindan aytib bergan edi. Uning fikricha, yangi “sovuq urush” endi boshlanayotgan edi. Shuningdek, kengayish xato fikr bo'lgan [5].

Bugungi kundagi holat uning haq bo'lganligini ko'rsatmoqda. Biroq AQSH va NATO ning kengayishni davom etishi va uchta Boltiqbo'yi davlatining bahsli tarzda qo'shilishi vaziyatni keskinlashtirdi. Zero, bu davlatlar chor Rossiyasi davrida ham, Sobiq Ittifoq davrida ham uning tarkibida bo'lgan. Natijada esa NATO Rossiya chegaralarigacha yetib kelgan. Bu esa Moskvaning tobora noroziligiga sababchi bo'lib brogan. 2007-yil mart oyida Vladimir Putin o'zining Munich Xavfsizlik Konferensiyasida Security Conference da so'zlagan nutqida ittifoqni ortga chekinishi bo'yicha ogohlantiradi. U o'sha nutqida NATOning oldingi safdagi kuchlari Rossiya chegaralariga joylashtirilganligi va buni ishonchni yemiradigan jiddiy provokatsiya deb hisoblashini ta'kidlagan edi. Bunga qo'shimcha tarzda Rossiya tashqi ishlar vaziri Sergey Lavrov NATO ni Rossiyaga qarshi vakillar orqali urushda samarali ishtirok etayotganlikda va Ukraina kuchlarini qurollantirayotganlikda aybladi. Lavrovning ta'kidlashicha, NATOning maqsadi Ukrainadagi mojaro orqali Rossiyaning harbiy va sanoat imkoniyatlarini tugatishdir. Agar NATO va Rossiya o'rtasidagi qarama-qarshilik kuchayishda davom etsa, mintaqada barqarorlik va xavfsizlikgiga jiddiy putur yetkazadi [3].

Mojarolar va urushlarda ishtirok etayotgan davlatlarning ijtimoiy va siyosiy oqibatlarini yorituvchi adabiyotlar keng miqyosda mavjud bo'lsa-da (Gehring, 2021; Munroe va boshqalar 2023), urushlarning bevosita ishtirok etmagan hududlarga ta'siri haqida dalillar yetarli emas. Bu borada 2014-yilda Rossiyaning Qrimni bosib olishi va Donbasdagi voqealar bilan bog'liq tadqiqotlar muhim istisno hisoblanadi. Masalan, Korovkin va Makarin (2023) savdo sohasiga ta'sirlarni ko'rsatadi, Gehring (2022) hamda Abramenko va boshqalar (2024) esa jangovar harakatlar olib borilmagan hududlar va chegaradosh mamlakatlarda milliy identitetga ta'sirini tahlil qiladi. Shunga o'xshash tarzda, Balsells va boshqalar (2024) hamda Anger va boshqalar (2024) 2022-yildagi Rossiya–Ukraina urushining Ispaniya va Germaniya kabi nisbatan uzoq mamlakatlarda ham identitet hissi va ruhiy salomatlikka ta'sir ko'rsatganini aniqlagan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Rossiya–Ukraina urushi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi va NATO ning rolini yanada kuchaytirdi. Alyans bevosita harbiy harakatlarda ishtirok etmagan bo'lsa-da, Ukrainaga ko'rsatilayotgan harbiy, moliyaviy va siyosiy yordam orqali mojaroning muhim ishtirokchilaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, NATOning sharqqa kengayishi Rossiya tomonidan tahdid sifatida qabul qilinib, geosiyosiy keskinlikning ortishiga olib kelgan.

Mazkur vaziyat NATOning xalqaro xavfsizlikni ta'minlashdagi imkoniyatlari bilan bir qatorda, uning faoliyatidagi muayyan cheklovlarni ham namoyon etdi. Xususan, a'zo davlatlar

o'rtasidagi strategik yondashuvlar farqi va global manfaatlar to'qnashuvi tashkilot ichki birligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kelgusida mintaqaviy va global barqarorlikni ta'minlash uchun tomonlar o'rtasida diplomatik muloqotni kuchaytirish, keskinlikni kamaytirish va xavfsizlik mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. NATO esa bu jarayonda muvozanatni saqlovchi va kollektiv xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy institutlardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. NATO and Russia-Ukraine War, Rohit (may 1, 2022) URL:<https://dbug.medium.com/nato-and-russia-ukraine-war-7398d69d024f>
2. NATO, WHAT IS NATO? 2001. Accessed on August 2023, URL:<https://www.nato.int/nato-welcome/>.
3. Demasi, M. A. (2023). Accountability in the Russo-Ukrainian war: Vladimir Putin versus NATO. *Peace and Conflict: Journal of Peace Psychology*, 29 (3), 257–265.
4. RAND. Consequences of the War in Ukraine: NATO's Future. (2023, March 2).
5. George Kennan warned NATO Expansion Would Lead to this URL:https://original.antiwar.com/david_stockman/2022/02/23/george-kennan-warned-nato-expansion-would-lead-to-this/ ,Devid Stokman (24 february 2022). George Kennan warned NATO Expansion Would Lead to this
6. Clapp, S. (2022). AT A GLANCE. | European Parliamentary Research Service.
7. [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/ATAG/2022/729380/EPRS_ATA\(2022\)729380_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/ATAG/2022/729380/EPRS_ATA(2022)729380_EN.pdf).
8. 3. Russia Ukraine conflict and NATO: Role, functions and powers. (2022, February 28). India Today;India Today Web Desk. URL:<https://www.indiatoday.in/education-today/gk-currentaffairs/story/russia-ukraine-conflict-and-nato-role-functionsand-powers-1918941-2022-02-28>.
9. India, B. I.(2022, February 24). Explained: The role of NATO in the Russia-Ukraine conflict.
10. Business Insider. URL:<https://www.businessinsider.in/international/news/what-is-the-role-of-nato-inthe-russia-ukraine-conflict/articleshow/89802216.cms>.
11. The Russia-Ukraine Conflict and NATO Resurgence? Documento de trabajo RedNIE N°337.